

Men va fazilatlarim





ISHONCH NIMA?

3



Vaziyatni o'rganing

Madina, Nozima va Mashhura – dugona. Madina bir sirni dugonalariga aytib, hech kimga oshkor qilmaslikni tayinladi. Ammo Mashhura bu sirni boshqa o'rtoqlariga aytib berdi. Nozima sukut saqladi.



Savollarga javob bering

1. Madinaning sirdoshi kim ekan?
2. Sirni kimga aytgan ma'qul?
3. Do'stingiz sirini aytsa, uni saqlay olasizmi?



O'qituvchi yordamida o'rganing

Ikki o'rtoq va ayiq

Ikki o'rtoq o'rmonda ketib borardi. Kutilmaganda bahaybat ayiq chiqib qoldi. Bolalardan biri shu zahoti daraxtga chiqib, novdalar orasiga berkindi.

U do'stiga yordam bermadi.

Ikkinchisi qochishga ulgurmadi, shu bois yerga yotib oldi. Ayiq unga yaqin keldi, bola nafas olmay yotdi. Ayiq uni hidlab-hidlab, birozdan so'ng qaytib ketdi.

Daraxtga chiqib olgan bola yerga tushib: "O'rtoq, ayiq qulog'ingga nimalarni pichirladi?" deb so'radi. O'rtog'i unga javoban debdi: "Seni qiyin ahvolda tashlab ketadigan odam bilan do'st bo'lma, deb aytdi".

Haqiqiy do'st boshga og'ir musibat tushganda bilinadi.





O'qituvchi yordamida o'rganing


Ishonch – bu odamlarning to'g'riso'zligi, sadoqati va halolligiga ishonish.

Ishonch har qanday munosabatlar uchun zarurdir.



Yozma topshiriq

O'zingiz ishonadigan insonlarning ismlarini yozing. Nima uchun ularni tanladingiz?



Uy vazifasi

“Ishonch” so'zi ishtirokida gaplar tuzing. Bu gaplar qanday ma'no anglatadi?

_____ sazovor bo'ldi.
 _____ oqlayapti.
 _____ bildiradi.
 _____ hosil qildi.
 _____ qozonyapti.



Vaziyatni o'rganing

Nigora Sobirovna sinf xonasidagi gullarga qarab turishni Sabina va Munisaga topshirdi. Qizlar gullarni parvarishlashga va'da berishdi. Sabina gullarini o'z vaqtida parvarishladi va ular chiroyli bo'lib o'sdi.

Munisa gullarini sug'ormadi va ular so'lib qoldi.



Savollarga javob bering

1. Qizlar va'dalarini bajarishdimi? Nima uchun?
2. Qizlardan qaysi biri ishonchni oqladi?
3. Qanday qilib ishonch qozonish mumkin?



Guruhlarda ishlash

Gaplarni mazmuniga mos qismlar bilan birlashtiring.

Hayot va ishonchni

**hech narsa bilan
qaytarolmaysiz.**

**Ishonchni
yo'qotsangiz,**

**faqat bir marta
yo'qotadilar.**



Bo'yang

1. Dars siz uchun qiziqarli bo'ldimi?



2. Dars mazmuni tushunarli bo'ldimi?



Uy vazifasi

O'ylab ko'ring va gaplarni to'ldiring.

Endi men ni bilib oldim.

Endi men qilaman.

Endi men qilmayman.

